

NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/04.10.2025.T.174.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

TURDIYEV HAYOTBEK ERGASHBOYEVICH

SHNEKLI MAYDA IFLOSLIKLARDAN TOZALAGICHNI
TAKOMILLASHTIRISH ORQALI TOZALASH SAMARADORLIGINI
OSHIRISH

05.06.02 – To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va
xomashyoga dastlabki ishlov berish

TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии
(PhD) по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on technical sciences**

Turdiyev Hayotbek Ergashboyevich

Shnekli mayda iflosliklardan tozalagichni takomillashtirish orqali tozalash samaradorligini oshirish..... 3

Турдиев Ҳаётбек Эргашбоевич

Повышение эффективности очистки за счет усовершенствования шнекового очистителя от мелкого сора..... 25

Turdiyev Hayotbek Ergashboyevich

Improving cleaning efficiency by improving the screw small trash cleaner..... 49

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 53

NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/04.10.2025.T.174.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

TURDIYEV HAYOTBEK ERGASHBOYEVICH

SHNEKLI MAYDA IFLOSLIKLARDAN TOZALAGICHNI
TAKOMILLASHTIRISH ORQALI TOZALASH SAMARADORLIGINI
OSHIRISH

05.06.02 – To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va
xomashyoga dastlabki ishlov berish

TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTASIYASI AVTOREFERATI

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD/T4482 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Farg'ona davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Namangan davlat texnika universiteti huzuridagi Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.namdtu.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Tuychiyev Timur Ortikovich

texnika fanlari falsafa doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Sarimsakov Olimjon Sharipjanovich

texnika fanlari doktori, professor

Mo'minov Mansurbek Rahimovich

texnika fanlari falsafa doktori, katta ilmiy xodim

Yetakchi tashkilot:

Jizzax politexnika instituti

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat texnika universiteti huzuridagi DSc.03/04.10.2025.T.174.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 21-avgust soat 11:00 da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: Namangan shahar, Janubiy aylanma yo'li ko'chasi, 17-uy, Tel. (998) 69-234-14-85, (998) 69-234-19-96. e-mail: info@namdtu.uz, Namangan davlat texnika universiteti 15-bino, 1-qavat, ilmiy kengash xonasi).

Dissertatsiya ishi bilan Namangan davlat texnika universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№49-raqam bilan ro'yxatga olingan). (Namangan shahri, Islom Karimov ko'chasi 12-uy, Tel. (998) 69-234-14-85). e-mail: info@namdtu.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "08" avgust kuni tarqatildi.
(2025-yil 15-apreldagi №49-raqamli reestr bayonnomasi).



Q.M.Xoliqov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
texnika fanlari doktori, professor

X.T.Bobojanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi,
texnika fanlari doktori, dotsent

J.Q. Yuldashev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, texnika fanlari doktori, dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi annotasiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahonda to‘qimachilik sanoatida foydalaniladigan tola miqdorining asosiy qismi 57-62 foizini paxta tolasini tashkil etmoqda¹. Dunyo miqyosida 24 mln tonna paxta tolasini ishlab chiqarilishini hisobga olsak, paxta tolasini tarkibidagi ifloslik va nuqsonlarni samarali, energiya va resurstejamkor tozalash mashinalarini amaliyotga joriy etish masalalariga alohida ahamiyat berilmoqda. Bu borada, tolaning tabiiy sifat ko‘rsatkichlariga mashina terimi va paxta tozalash jarayonlarining ta‘sirini o‘rganish, paxta tolasining tabiiy sifat ko‘rsatkichlarini saqlab qolgan holda mashina terimidagi paxtani optimal tozalash rejimini tanlash, mashinada terilgan paxtani tozalash jarayonini tolaning sifat ko‘rsatkichlariga ta‘siri tadqiq qilish, paxtani saqlash jarayonida iflosliklarning tola bilan bog‘lanishini o‘zgarishini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, jahon paxta tozalash sanoatida yuqori samaradorlikka ega bo‘lgan paxta tozalash uskunalari takomillashtirish va resurstejamkor texnologiyalardan foydalanish masalalariga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Jahonda paxtani dastlabki ishlashning texnika va texnologiyasini takomillashtirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali va oqilona foydalanish darajasini oshirish, jahon to‘qimachilik bozorida raqobatbardosh qo‘shimcha qiymat qo‘shilgan yarim tayyor va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ushbu yo‘nalishda, jumladan, paxta tarkibidagi iflos aralashmalarni tozalash uchun paxtani titilishi va issiqlik-namlik holatini yaxshilash bo‘yicha tadqiqotlar ustuvor hisoblanmoqda. Shu bilan birga, paxtani iflos aralashmalardan tozalashning samarali texnologiyasi va regeneratorlarning resurstejamkor konstruksiyalarini yaratish, paxtani tozalash jarayonida namlik-issiqlik ko‘rsatkichlarini, ishlash rejimlarini optimallashtirish kabi yo‘nalishlarda maqsadli ilmiy izlanishlarni amalga oshirish dolzarb vazifalardan hisoblanmoqda.

Respublikamizda paxta-to‘qimachilik klasterlarini rivojlantirish, paxta tozalash korxonalarini modernizatsiyalash va texnik qayta jihozlash, xomashyoni dastlabki ishlash rentabelligini, shu bilan birga, ishlab chiqariladigan mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish bo‘yicha keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi² da, jumladan «Qishloq xo‘jaligida hosildorlik va rentabellik darajasini keskin oshirish, jumladan hosildorlik ko‘rsatkichlarini paxta bo‘yicha o‘rtacha 45 - 50 sentnerga yetkazish...» bo‘yicha vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, jumladan, qoziqchali shnekli mayda iflosliklardan tozalash uskunalarida paxta tolalarini eshilishini kamaytirish va iflosliklar ajralishini jadallashtirish asosida samarali texnologiyasini yaratishga qaratilgan ushbu ilmiy izlanishlar muhim hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son «“O‘zbekiston - 2030” strategiyasi» to‘g‘risidagi, 2021-yil 16-noyabrdagi PF-14-son «Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatini tartibga solish chora-tadbirlari»

¹ Cotton: World Statistics. <http://www.ICAC.org>; <https://www.statista.com>.

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son «“O‘zbekiston — 2030” strategiyasi» to‘g‘risidagi Farmoni

to'g'risidagi Farmonlari va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-iyundagi 397-son «Paxta-to'qimachilik ishlab chiqarishini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori hamda hamda mazkur faoliyatga tegishli bo'lgan boshqa me'yoriy-xuquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II. "Energetika, energiya va resurstejamkorlik" ustuvor yo'nalishiga mos keladi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Paxtani tozalash uskunalari takomillashtirish masalalarini hal qilishda bir qator taniqli xorijiy olimlar katta hissa qo'shganlar, jumladan W.S.Anthony, R.M.Sutton, R.V.Baker, P.A.Boving, J.W.Laird, V.G.Arude, S.K.Shukla, T.S.Manojkumar, D.W.Van Doorn, B.M.Norman va boshqalar.

Paxtani iflos aralashmalardan tozalash texnika va texnologiyasini, tozalagichlarning asosiy ishchi qismlarining ko'rsatkichlari va ishlash rejimlarini takomillashtirishga O'zbekistonning taniqli olimlarini ilmiy ishlari bag'ishlangan. Bulardan: G.I.Miroshnichenko, S.D.Boltabayev, G.D.Djabbarov, R.Z.Burnashev, G.I.Boldinskiy, R.V.KorAbelnikov, B.I.Roganov, I.K.Xafizov, A.Parpiyev, A.YE.Lugachev, A.Djurayev, Y.S.Sosnovskiy, I.D.Madumarov, P.N.Borodin, SH.SH.Xakimov, X.S.Usmonov. Olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida tozalanayotgan paxtaning qoziqcha sirtidagi harakatining qoziq balandligiga, baraban radiusiga va tezligiga bog'liqligining nazariy tadqiqotlari, paxtani issiqlik-namlik holatini muqobillashtirish va bir tekis ta'minlash asosida tozalash jarayonining samaradorligini oshirish, paxta tozalash uskunasi yangi konstruksiyasi ishlab chiqish, paxtani iflosliklardan tozalash jarayoni samarali texnologiyasini va tozalagichlar ishchi qismlarining ratsional konstruksiyasini yaratish masalalarini yechishda salmoqli natijalarga erishilgan.

Shu bilan birga, paxtani mayda iflosliklardan tozalash mashinasini takomillashtirish orqali tozalash samaradorligini oshirish bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borilgan bo'lishiga qaramasdan chet el va mahalliy paxta tozalash korxonalarida foydalanilayotgan paxta tozalash uskunalarini batafsil tahlil qilish, ularning ishchi qismlari samaradorliklarini oshirish, yangi konstruksiyadagi shnekli tozalash mashinalarida paxtani mayda iflosliklardan tozalash kabi muammolar yetarli darajada o'rganilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining ITD-3-136 "Resurstejamkor boshqariladigan tolali materiallarni tozalash texnologiyasi va qurilmasini yaratish" (2012-2014) mavzusi doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi mayda iflosliklardan tozalovchi uskunaning qoziqchali shneklarini takomillashtirgan holda tozalash samaradorlikni oshirish va paxta tolalarini eshilishini kamaytirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

mahalliy va xorijiy paxta tozalagichlarini ishlash jarayonlarini tahlil etish;
mayda iflosliklarni ajratuvchi shnekli tozalagich ishchi kamerasida paxta bo'laklarining harakat trayektoriyasini tahlili;

tozalagich shnegining qoziqlarini o'lchamlari va shaklini iflosliklarni ajralishga ta'sirini nazariy tadqiq etish;

takomillashtirilgan qoziqchali shnek o'rnatilgan tozalagichni ishlab chiqish va tajriba sinovlarini o'tkazish;

ishlab chiqilgan mayda iflosliklardan tozalash uskunasi ishlab chiqarishga tadbiiq etishda olinadigan iqtisodiy samaradorlik hisobi.

Tadqiqotning obykti sifatida paxtani mayda iflos aralashmalardan shnekli tozalash uskunasi va texnologiyasi olingan.

Tadqiqotning predmetini paxtani mayda iflosliklardan shnekli tozalash jarayoni tashkil qiladi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida nazariy va amaliy mexanika, ideal gazlar nazariyasi, tajriba natijalarini matematik statistik qayta ishlash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

qoziqchali shnek perosining ikki tomoniga qoziqchalarni 45^0 burchak ostida joylashtirgan holda takomillashtirilgan mayda iflosliklardan tozalash uskunasi ishlab chiqilgan;

mayda iflosliklarni ajratuvchi shnekli tozalagich ishchi kamerasida paxta bo'laklarining harakat trayektoriyasini tahlili asosida paxta tolasini eshilih darajasini kamaytirish imkoniyatini beruvchi qoziqchalarning og'ish burchaklari aniqlangan;

deformatsiyalanadigan paxta bo'lakchasining tekis yuza bilan o'zaro ta'sir modeli asosida tozalagichning tozalash samaradorligini oshirish imkoniyatini beruvchi qoziqchali shnek ishlab chiqilgan;

paxta bo'laklari tarkibidagi iflosliklar harakatining fazoviy trayektoriyasi qurilib, qoziqchali shnekli tozalagichda ifloslikning ajralish jarayonining modeli ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

paxtani tozalash samaradorligini oshirish imkonini beruvchi takomillashtirilgan mayda iflosliklardan tozalagich ishlab chiqilgan;

mayda iflosliklardan tozalash uskunasi qoziqchali shnek qoziqchalarining ratsional qiymatlari aniqlangan;

tozalash jarayonida eshilihgan paxta bo'lakchalarini tozalash seksiyalarini soniga bog'liqligini aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi paxta tarkibidagi mayda iflos aralashmalardan tozalash uskunalari nazariy tadqiqotlari natijasining amaliy sinovi, ularning mavjud va amal qilayotgan fundamental nazariyaga mantiqan muvofiq kelishi, hisobiy ishlarda standartlashtirilgan usul va vositalardan foydalanilganligi, olingan natijalarni real iqtisodiy samara bilan ishlab chiqarishga joriy qilinishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati paxtani mayda iflosliklarni ajratuvchi shnekli tozalagich ishchi kamerasida paxta bo‘lakchalarining harakat trayektoriyasini tahlili, tozalagich shnegining qoziqlarini o‘lchamlari va shaklini iflosliklarni ajralishiga ta’siri hamda paxta bo‘lakchalarining tozalagich seksiyalaridan bir -biriga o‘tayotgandagi harakatini nazariy-amaliy asosida tadqiqoti qoziqchali shnekli tozalagich ishchi qismlarining ish tartiblari va parametrlarini aniqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shnekli tozalagichning qoziqchalari shnek perosining ikki tomoniga 45⁰ burchak ostida joylashtirgan mayda iflosliklardan tozalash uskunasi ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Paxtani mayda iflosliklardan tozalash uskunasi takomillashtirilgan konstruksiyasini qo‘llash orqali olingan ilmiy natijalar asosida:

paxta bo‘lakchalarini eshinishini kamaytirish hisobiga mayda iflosliklardan tozalash samaradorligi yuqori bo‘lgan tozalovchi mashinaning takomillashtirilgan konstruksiyasi Farg‘ona viloyati “Kosta line holding” MCHJ ga qarashli “Rishton paxta tozalash” korxonasi joriy qilingan. («O‘zto‘qimachilik sanoat» uyushmasining 2024 yil 9 sentyabrdagi 03/25-2445-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, tozalash samaradorligi 8,3 % ga oshirishga erishilgan hamda korxonada kutilayotgan yillik iqtisodiy samaradorlik 273 mln 480 ming 927 (ikki yuz yetmish uch million to‘rt yuz sakson ming to‘qqiz yuz yigirma yetti) so‘mni tashkil qilgan.

Paxta tolasini eshinish darajasini kamaytirish imkoniyatini beruvchi mayda iflosliklarni ajratuvchi shnekli tozalagich ishchi kamerasida paxta bo‘lakchalarining harakat trayektoriyasini tahliliy natijalari “Rishton paxta tozalash” korxonasi joriy qilingan. («O‘zto‘qimachilik sanoat» uyushmasining 2024-yil 9-sentabrdagi 03/25-2445 sonli ma’lumotnomasi). Natijada, eshilgan paxta bo‘lakchalari miqdorini 2,5 martagacha kamaytirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma’ruza qilingan va muhokamadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 14 ta ilmiy ishlar chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqolalar, jumladan 6 ta respublika va 1 ta chet el ilmiy jurnallarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to‘rtta bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 118 betni tashkil etgan.


DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertasiyaning “**Kirish**” qismida dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, ob’ekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo’nalishlariga mosligi ko’rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo’yicha ma’lumotlar berilgan.

Dissertasiyaning “**Adabiyotlar tahlili, ishning maqsadi va vazifalari**” deb nomlangan birinchi bobida paxtani mayda iflos aralashmalardan tozalash texnologiyasi, paxtani tozalashning mahalliy texnika va texnologiyalarini takomillashtirish bo’yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlili, paxtani tozalashning xorijiy texnika va texnologiyalari hamda ularni takomillashtirish bo’yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlili hamda 6A-12M uskunasi ishlar jarayonini tahlili keltirilgan.

Dissertasiyaning “**Shnekli tozalagichda paxtaning harakat traektoriyasi va zarba kuchlarini nazariy tadqiqoti**” deb nomlangan ikkinchi bobida shnekli tozalagichning ishchi qismlarini jarayoniga ta’siri, qoziqli shnekning asosiy ko’rsatkichlarini aniqlash, mayda iflosliklarni ajratuvchi shnekli tozalagich ishchi kamerasida paxta bo’laklaridan ajralayotgan iflosliklarning harakat trayektoriyasini tahlili, tolali massa tarkibidagi ifloslikning tekis trayektoriyasini tadqiq qilish, tolali muhitda ifloslikning fazoviy harakatida chiqib ketishini tahlil qilish bo’yicha tahlili keltirilgan.

Paxta bo’lakchalari harakatlanayotganda, iflos aralashmalar tolali muhitga bilan aralashadi, buning natijasida ularning bir qismi uning tarkibini tark etishi mumkin. Iflosliklar odatda tolali muhitda fazoviy harakatni amalga oshiradi.



1-rasm. Tadqiqot variantidagi qoziqchalar o’rnatilgan shnekning qoziqchalarini paxtaga ta’sir sxemasi: 1-shnek perosi; 2-shnek vali; 3-mavjud qoziqcha; 4-qiya holatdagi qoziqcha.

Paxta bo’lakchasiga qoziqli shnek qoziqlari zarbasidan so’ng ifloslikning bir qismini fazoviy harakatini ko’rib chiqamiz. Shuni ta’kidlash kerakki, zarba paytida tolali massa deformatsiyalanadi va uning shakli o’zgaradi. Shu sababli, zarbagacha bo’lgan tolali massani elastik shar ko’rinishida modellashtirmoqdamiz. Zarba

ta'sirdan so'ng, paxta bo'lakchasi deformatsiyalanadi va uning og'irlik markazi ma'lum bir vaqtgacha harakat qilishda davom etadi. Zarba berilgan paxta bo'lakchasining radiusi qoziqcha radiusiga nisbatan kichik deb taxmin qilamiz, shuning uchun biz deformatsiyalanadigan paxta bo'lakchasining tekis yuza bilan o'zaro ta'sir modelini qabul qilamiz.

Sharning markazi koordinatalar boshi bo'lgan sferik koordinatalar tizimini kiritamiz (1-rasmga qarang). Shar vertikal pastga yo'nalgan O_x , o'qi bo'ylab quyidagi qonunga $V_x = V_x(t)$ muvofiq harakat qiladi: bunda shar $V_x = V_0 t$ sirtga urilishigacha, $V_x = V_x(t)$ esa urilishdan keyin. Bu yerda funksiya bo'lakchanning massalar markazi harakat tenglamasidan, uning tekislik bilan kontakt yuzasidagi bosimning ma'lum taqsimlanish qonuni asosida aniqlanadi.

Faraz qilaylik, bo'lakcha zarbadan oldin $t = 0$ vaqt momentida V_0 tezlikka ega bo'lsin. Aralashma zarrachalariga harakatlanayotgan bo'lakchaga nisbatan zarrachalar trayektoriyasi bo'ylab yo'nalgan elastiklik kuchlari $\vec{F}\{F_x, F_y, F_z\}$ va Kulon qonuniga asoslangan ishqalanish kuchlari $\vec{R}(R_x, R_y, R_z)$ ta'sir qiladi deb hisoblaymiz.

Shunday qilib, bu kuchlarning OX, OY va OZ o'qlari bo'ylab tashkil etuvchilari quyidagicha bo'ladi:

$$F_x = k_x(V_x + x_0 - x), F_y = k_y(V_y + y_0 - y), F_z = k_z(V_z + z_0 - z)$$

$$R_x = \frac{fmg(V_x - \dot{x})}{\sqrt{(V_x - \dot{x})^2 + (V_y - \dot{y})^2 + (V_z - \dot{z})^2}} \quad (1); \quad R_y = \frac{fmg(V_y - \dot{y})}{\sqrt{(V_x - \dot{x})^2 + (V_y - \dot{y})^2 + (V_z - \dot{z})^2}} \quad (2)$$

$$R_z = \frac{fmg(V_z - \dot{z})}{\sqrt{(V_x - \dot{x})^2 + (V_y - \dot{y})^2 + (V_z - \dot{z})^2}} \quad (3)$$

Bu yerda k_x, k_y, k_z - iflosliklarning tolalar bilan bog'lanish qattiqligi koefitsiyentlari, β - ishqalanish koefitsiyenti, m - iflosliklarning massasi, V_x, V_y, V_z - OX, OY va OZ o'qlari bo'yicha uchuvchi iflosliklarning tezlik vektori tashkil etuvchilari. Tolali muhit tarkibidagi iflosliklarning harakat tenglamasini quyidagi ko'rinishda yozamiz:

$$mx = F_x - R_x + mg \quad (4); \quad my = F_y - R_y \quad (5); \quad mz = F_z - R_z \quad (6)$$

Tolali muhit tarkibidagi iflosliklarning harakati ikki bosqichga bo'linadi.

Birinchi bosqich ifloslikning tolali muhitda qattiq tekislikka urilish paytiga qadar bo'lgan harakatidir. Bu bosqich $0 \leq t \leq t_0$. ma'lum vaqt oralig'ida sodir bo'ladi. Bunda ifloslikning tezligi quyidagi tarkibiy qismlardan iborat deb qabul qilamiz

$$V_x = V_0 \cos \alpha, V_y = V_0 \sin \alpha, V_z = 0$$

bu yerda α - radius bilan O_y o'q orasidagi burchak.

Bu holda iflosliklarning harakati XOY tekisligida ikki o'lchovli bo'ladi va formulalarda quyidagicha hisoblanadi: $z = z_0, z = 0 = 0$ hosil qilamiz.

$$m\ddot{x} = \kappa_x(V_x t - x + x_0) - f \frac{(V_x - \dot{x})mg}{\sqrt{(V_x - \dot{x})^2 + (V_y - \dot{y})^2}} + mg \quad (7)$$

$$m\ddot{y} = \kappa_y(V_y t - y + y_0) - f \frac{(V_y - \dot{y})mg}{\sqrt{(V_x - \dot{x})^2 + (V_y - \dot{y})^2}} \quad (8)$$

(7) va (8) tenglamalar tizimi, $t=0$ bo'lganda boshlang'ich $x = x_0$, $y = y_0$, $\dot{x} = 0$, $\dot{y} = 0$ shartlar ostida integrallanadi.

Ifloslikning tolalar bilan aloqasi buzilishi, unga ta'sir ko'rsatilishi, so'ngra ifloslikning toladan ajralishi va keyinchalik uning harakati tolali muhitning ishqalanish maydonida sodir bo'ladi deb hisoblasak, kontakt kuchini quyidagi ko'rinishda ifodalashimiz mumkin:

$$F_x = \begin{cases} k_x u_x \text{ bilan } u_x \leq u_{xs} \\ 0 \text{ bilan } u_x \geq u_{xs} \end{cases} \quad (9); \quad F_y = \begin{cases} k_y u_y \text{ bilan } u_y \leq u_{ys} \\ 0 \text{ bilan } u_y \geq u_{ys} \end{cases} \quad (10)$$

Avvalo, ishqalanish kuch $k_x = k_{01} = const$, $k_y = k_{02} = const$ mavjud bo'lmagan holatni ko'rib chiqaylik. Bunday vaziyatda tizim alohida qismlarga ajralib ketadi va har bir tenglamaning yechimi quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$x = \frac{V_0 \cos \alpha}{\omega_1} (\omega_1 t - \sin \omega_1 t) + x_0 + \frac{g}{\omega_1^2} \quad (11); \quad y = \frac{V_0 \sin \alpha}{\omega_2} (\omega_2 t - \sin \omega_2 t) + y_0 \quad (12)$$

$$\omega_1 = \sqrt{\frac{k_{01}}{m}}, \quad \omega_2 = \sqrt{\frac{k_{02}}{m}}, \quad \omega_1 = \omega_2 (k_{01} = k_{02}) \text{ deb hisoblaymiz..}$$

Agar uchuvchi ifloslikning shaklini r_u radiusi bo'lgan shar ko'rinishida qabul qilsak, XOY tekisligidagi iflosliklarning harakati r_u radiusli doira ichida sodir bo'ladi. Bunda ifloslikning shar markazidan uzoqlashishi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$r = \sqrt{x^2 + y^2} = \sqrt{\left[x_0 + \frac{V_0 \cos \alpha}{\omega} \xi(t) + \frac{g}{\omega^2}\right]^2 + \left[y_0 + \frac{V_0 \sin \alpha}{\omega} \xi(t)\right]^2}$$

bunda $\xi = \omega t - \sin \omega t$.

Tolalar bilan $t \geq t_s$ aloqa uzilgandan so'ng, quyidagi holat yuzaga keladi.

$$x = v_{xs}(t - t_s) + x_s + x_0 \quad (13); \quad y = v_{ys}(t - t_s) + y_s + y_0 \quad (14)$$

bunda $t_s = \min(t_{1s}, t_{2s}) \leq t_0$, t_{1s}, t_{2s} tenglamaning ildizlari

$$V_0 \cos \omega t_{1s} - x_s = u_s, \quad V_0 \sin \omega t_{2s} - y_s = u_s, \quad x_s = \frac{V_0 \cos \alpha}{\omega} \xi(t_s),$$

$$V_{xs} = V_0 \cos \alpha (1 - \cos \omega t_s), \quad y_{zs} = \frac{V_0 \sin \alpha}{\omega} \xi(t_s), \quad V_{ys} = V_0 \sin \alpha (1 - \cos \omega t_s)$$

Bu iboralardan t_{1s} va t_{2s} vaqtni aniqlaymiz.

$$t_{1s} = \frac{1}{\omega} \arcsin \frac{\omega u_s}{V_0 \cos \alpha}, \quad t_{2s} = \frac{1}{\omega} \arcsin \frac{\omega u_s}{V_0 \sin \alpha}$$

Agar $\alpha < \frac{\pi}{4}$, qabul qilinsa, unda $t_{1s} > t_{1s}$ shuning uchun $t_s = t_{1s}$, undan tashqari

talab qilish kerak $V_0 > \frac{\omega_s}{\sin\alpha}$. Bu holda ifloslik tola sirtidan ajralib chiqadi va agar ishqalanish bo'lmasa, u (11) va (12) qonuniyatlarga muvofiq harakatini davom ettiradi. Ko'rinib turibdiki, ifloslik joylashgan nuqtasidan chiziqli qonunga binoan uzoqlashib bormoqda.

$$y = ctg\alpha(x - x_s - x_0) + y_s + y_0 \quad (15)$$

Bu chiziq aylana bilan nuqtada kesishadi. $x = x_*$, $y_* = ctg\alpha(x_* - x_s - x_0) + y_s + y_0$

Bu yerda x_* - tenglamaning ildizi $x_*^2 + [ctg\alpha(x_* - x_s - x_0) + y_s + y_0]^2 = r_u^2$

Bunda chiqish vaqti teng bo'ladi: $t_* = t_s + (x_* - x_s - x_0) \frac{V_{ys}}{V_{xs}}$

Agar uchuvchi zarrachaning harakat tezligi belgilangan $V_0 < \frac{\omega_s}{\sin\alpha}$ shartga mos

kelsa, u holda zarracha tolali muhit tarkibida qoladi va uni chiqarib tashlash uchun uchuvchi zarrachaning tezligini o'zgartirish yoki tushish burchagi α ni oshirish zarur bo'ladi [7-10].

Agar elastik kontakt buzilgandan so'ng zarrachalar ishqalanish kuchi mavjud bo'lgan tolali muhitda harakat qiladi deb hisoblasak, u holda harakat trayektoriyasini aniqlash uchun tenglamalar quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$m\ddot{x} = -f \frac{(V_x - \dot{x})mg}{\sqrt{(V_x - \dot{x})^2 + (V_y - \dot{y})^2}} + mg \quad (16); \quad m\ddot{y} = -f \frac{(V_y - \dot{y})mg}{\sqrt{(V_x - \dot{x})^2 + (V_y - \dot{y})^2}} \quad (17)$$

(16) va (17) tenglamalar boshlang'ich $t = t_s$ shartlar asosida $x = x_s$, $y = y_s$, $\dot{x} = V_{xs}$, $\dot{y} = V_{ys}$ sonli integratsiya qilinadi. Agar ma'lum $t = t_s < t_0$ bir vaqtda ifloslikning koordinatalari quyidagi $x^2 + y^2 = r_u^2$ tenglamani qanoatlantirsa: u holda ifloslik paxta bo'lakchalaridan chiqib ketadi, yani ajraladi. Agar $x^2 + y^2 < r_u^2$ bo'lsa, iflosliklar tolali massa tarkibida qoladi va ularning ajralishi uchun bo'lakchanning to'rtli yuzaga urilgandan so'ng sodir bo'ladi.

Shunday qilib, paxta tolasining qattiq tekislikka urilish paytiga qadar ifloslikning harakatini bitta XOY tekislikda ko'rib chiqish mumkin. Bu tekislikda OX o'qi vertikal pastga, OY o'qi esa unga nisbatan chapdan o'ngga tik yo'nalgan. Faraz qilaylik, (chigitlar) og'irlik markazi zarba paytiga qadar [19-20] qonunga muvofiq harakat qiladi:

$$x_u = f_1(t), y_u = f_2(t), z_u = f_1(t) \quad (18)$$

Bunda uchuvchi ifloslikning trayektoriyasi R_r radiusi bo'lgan aylana shaklida bo'lib, boshlang'ich tezlikning tashkil etuvchilari quyidagicha bo'ladi:

$$t = 0 \text{ bo'lganda } \dot{x}_u = V_0 \cos\alpha, \dot{y}_u = V_0 \sin\alpha, \dot{z}_u = 0$$

Ifloslikning fazoviy harakatini, uning (shar shaklidagi) massa markazining trayektoriyasi fazoviy bo'lgan holda ko'rib chiqish mumkin. Xususan, bunday trayektoriyani vint shakliga yaqin deb hisoblash mumkin.

$$f_1 = -R_0 \sin(-\omega t + \alpha), f_2 = R_0 \cos(-\omega t + \alpha), f_3 = \frac{h}{2\pi} \omega t$$

bu yerda - h - vint qadami.

(13) - (14) tenglama qabul qilinadigan ko‘rinishga ega

$$m\ddot{x}_1 = k_x(x_1 - x_0) - \frac{fmg\dot{x}_1}{\sqrt{\dot{x}_1^2 + \dot{y}_1^2 + \dot{z}_1^2}} + mR_0\omega^2 \sin(-\omega t + \alpha) + mg \quad (19)$$

$$m\ddot{y}_1 = k_y(y_1 - y_0) - \frac{fmg\dot{y}_1}{\sqrt{\dot{x}_1^2 + \dot{y}_1^2 + \dot{z}_1^2}} - mR_0\omega^2 \cos(-\omega t + \alpha) \quad (20)$$

$$m\ddot{z}_1 = k_z(z_1 - z_0) - \frac{fmg\dot{z}_1}{\sqrt{\dot{x}_1^2 + \dot{y}_1^2 + \dot{z}_1^2}} \quad (21)$$

(20)-(21) tizimi analitik ravishda yechilmaydi, shuning uchun Runge-Kutta sonli yechish usulidan foydalanamiz va keyinchalik iflosliklar harakatining fazoviy trayektoriyasini quramiz. Quyidagi formulalar bo‘yicha sferik koordinatalarni kiritamiz:

$$x_1 = r \sin \theta \cos \phi; y_1 = r \sin \theta \sin \phi; z_1 = r \cos \theta; 0 \leq \theta \leq \pi, 0 \leq \phi \leq 2\pi \quad (22)$$

Ifloslikning $\theta = \theta_0 = const, \phi = \phi_0 = const$ turli tekisliklardagi harakatini ko‘rib chiqish mumkin. Bunda ifloslikning har bir tekislikdagi siljishi $r = r_u = const$ sharti bilan aniqlanadi, bu esa ifloslikning fazodagi harakatini geometrik talqin qilish usulini osonlashtiradi. (2)-(3) tenglamalardan foydalanib, burchak ϕ va radius r ning koordinatalar x

$$r = \frac{1}{\sin \theta_0} \sqrt{x_1^2 + y_1^2}; \phi = \arctg \frac{y_1}{x_1} \text{ yoki } r = \frac{z_1}{\cos \theta_0}; \phi = \arctg \frac{y_1}{x_1}$$


Shunday qilib, (ϕ, r) tekislikdagi zarra $r = r(t), \phi = \phi(t)$ parametrik shaklda ifodalangan trayektoriya bo‘ylab harakatlanadi.

Faraz qilaylik, vaqtning ma’lum bir paytida $t = 0$ tolali muhitda n ta ifloslik tekislikda (x_n, y_n) koordinatalari bo‘ylab ma’lum bir $t = 0$ uzunlik bo‘yicha uchmoqda, shunday qilib $y_u = \varphi(x_u)_1$ massa harakatlanganida nuqtalar o‘z koordinatalarini o‘zgartiradi va $t = 0$ bo‘lganda $y = f(x)$ chiziq boshqa chiziqqa aylanadi. Bu yangi chiziqda $y = f(x)$ paytida avvalgi chiziq bo‘ylab joylashgan o‘sha iflosliklar yotadi. Bunday holda, yuqorida ta’kidlanganidek, dastlab chiziq bo‘ylab joylashgan iflosliklarning ko‘chishi sodir bo‘ladi. Ko‘chish natijasida iflosliklarning chiziq bo‘ylab joylashish zichligi o‘zgarishi mumkin, ularning ba’zilari tolali muhit tarkibidan chiqib ketishi mumkin. Tolali massa harakatlanganida iflosliklar ko‘chishi katta darajada sodir bo‘ladigan iflosliklarning joylashuv chiziqlarini aniqlash amaliy jihatdan muhimdir. Shu tarzda massa tarkibidan iflosliklar guruhini samarali ajratish imkoniyati paydo bo‘ladi.

Differensial tenglamalar Runi-Kutta usuli yordamida quyidagi holatda sonli integrallandi.


$$k_x = k_y = k_z = k_0(u_s - u), u \leq u_s, k_x = k_y = k_z = 0, u \geq u_s$$

Uchib turuvchi ifloslikning (sharning) massa markazi ω burchak tezligi bilan aylanma harakat qiladi. Turli parametr qiymatlari uchun olingan hisob-kitob natijalari 2-3-rasmlarda aks ettirilgan.



2-rasm. $\theta_0 = 45^\circ$, $r_0 = 10\text{mm}$, $k_0 = 0$, $\alpha = 30^\circ$, $f = 0.3$, $R = 0.275M$, $R_u = 0.03M$, $\omega = 20c^{-1}$
bo'lganda, ifloslikning turli boshlang'ich burchak qiymatlari φ_0 uchun

$$r_k = \sqrt{x_1^2(t) + y_1^2(t) + z_1^2(t)} - r_u \text{ ning siljishini vaqtga bog'liqligi.}$$



3-rasm. $r_0 = 2\text{mm}$, $\varphi_0 = 135^\circ$, $k_0 = 0$, $\alpha = 30^\circ$, $f = 0.3$, $R = 0.275M$, $r_u = 0.03M$, $\omega = 20c^{-1}$
bo'lganda, ifloslikning turli boshlang'ich burchak qiymatlari θ_0 uchun

$$r_k = \sqrt{x_1^2(t) + y_1^2(t) + z_1^2(t)} - r_u \text{ ning siljishini vaqtga bog'liqligi.}$$

Hisoblash yo'li bilan aniqlaymizki, $r = 2.5\text{mm}$, $v_0 = 45$, $\varphi_0 = 45^\circ$ koordinatalarga ega bo'lgan ifloslik holatida $t = t_0$ massa tarkibidan ajralib chiqadi.

Boshqa barcha iflosliklar $r \leq 2.5MM$, radiusi bilan θ_0, φ_0 burchaklardan farq qiluvchi θ_0 va φ_0 massa tarkibidan ajralib chiqmaydi. Hisoblashlar natijasida, shuningdek, $k_0 < 5 * 10^4 H / M^3$ ishqalanish koeffitsienti bilan elastik aloqada bo'lganda massa tarkibidan ajralib chiqadi.

Faraz qilamizki, $r_0 = 4MM$. hisoblash yo'li bilan aniqlaymizki, massa tarkibidan $40^\circ \leq \theta_0 \leq 145^\circ$ $0 \leq \varphi_0 \leq 115^\circ$, $40^\circ \leq \theta \leq 145^\circ$ koordinatalarga ega bo'lgan iflosliklar ajralib chiqadi. Eng kam vaqt davomida ajralib chiqishda koordinatalarga ega bo'lgan iflosliklarni olamiz. $\theta_0 = 115^\circ$, $\varphi_0 = 45^\circ$ Qattqlik koeffitsienti $k_0 \geq 5 * 10^4 H / M^3$ bo'lganda ifloslikning ajralib chiqishiga ta'sir qila boshlaydi.

Ko'rinib turibdiki, tolaning tarkibidan ifloslikni intensiv ajralishi r ning o'zgarmas qiymatlarida $\varphi_0 \leq \theta \leq 120^\circ$, $0 \leq \varphi_0 \leq 115^\circ$ $330^\circ \leq \varphi_0 \leq 360^\circ$ oralig'ida yuz beradi. Bunda, massaning markazining burchak tezligini hisobga olgan holda, bu hudud kengayadi. Shunga o'xshash egri chiziqlar $r_0 = 0.02$ 2.3.5-rasmda ko'rsatilgan. Ko'rinib turibdiki, $0.012 \leq r \leq r_{uu}$ radiusli sharsimon qatlamda bo'lmagan ifloslik $\omega \leq 20c^{-1}$ da tanlangan parametrlar uchun tolali massasining tarkibidan chiqib ketishi aniqlandi.

Dissertasiyaning **“Takomillashtirilgan shnekli paxta tozalagichni ishlab chiqish”** deb nomlangan bobida paxtani 6A-12M1 mayda iflosliklardan tozalash uskunasi qayta ishlanganda hosil bo'lgan eshilganlikni to'g'rilanishiga yirik iflosliklardan tozalash jarayonida ishlatiladigan arrachali barabanlar seksiyalarida tozalash qaytaligini ta'sirini aniqlash bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari keltirilgan.

Eshilgan paxta tolalarini arrachali barabanlar seksiyalarida tozalash qaytaligini tolalarni to'g'rilanishiga ta'sirini ko'rib chiqamiz. Buning uchun 6A-12M uskunasi qayta ishlangan paxtadan 950 gr dan uchta qayta o'tkazish uchun namunalari olinib, 4-rasmda keltirilgan arrachali barabanlar seksiyasidan o'tkazildi.



4-rasm. Arrachali barabanlar seksiyasining umumiy ko'rinishi.

Paxta ta'minlovchi valiklardan qich tarnov orqali arrachali barabanlar seksiyasiga uzatildi. Arrachali baraban tishlariga ilashtiruvchi cho'tka yordamida paxta bo'lakchalari ilashtirilib, kolosnikli panjaraga borib urilishida paxta tarkibidagi iflosliklar ajralishi va ajralgan iflosliklar tarkibidagi paxta bo'lakchalarini

regeneratsiya barabanida tozalab ajratuvchi-uzatuvchi cho‘tkali baraban yordamida umumiy paxtaga qo‘shildi.

Regeneratsiya barabani ostida joylashgan kolosnikli panjara orqali ajralgan iflosliklar 0,01 gr aniqlikdagi tarozida tortilib, vazni aniqlandi.


Har bir tajribada 100 gr dan namuna olib qo‘yildi. Shu tarzda 8 marotaba arrachali barabanlarda paxta tozalandi.

Tajribalar o‘tkazilgandan so‘ng, 100 gr dan olib qo‘yilgan namunalardagi paxta tolalarini eshilganligi o‘rganildi. Arrachali barabanlardan o‘tkazishdan oldin 6A-12M uskunasi nechchi foiz paxta bo‘lakchalari eshilganligi aniqlandi. Tajriba natijalari 1-jadvalda va 5-6-rasmlarda grafik va gistogramma ko‘rinishida keltirilgan.

Tajribalarda arrachali barabanlarda eshilgan paxta tolalarini bir- biridan ajralishi va tolalarini to‘g‘rilanishi natijasida eshilgan paxtalar miqdorini o‘zgarishi qayd etildi. Arrachali baraban tishlari bilan ilashtirib olgan eshilgan paxta bo‘lakchalarini kolosnikli panjaraga borib urilishi natijasida bo‘lakchalar orasidagi bog‘lanish kamayib, ayrim hollarda to‘liq ajralib, eshilganlik kamayib bordi.

Tajriba natijalarini tahlil qiladigan bo‘lsak, 1-marotaba arrachali barabanlarda o‘tkazishda eshilgan paxta bo‘lakchalari soni 23 ta tashkil etib, shundan, ikkita chigitli paxta bo‘lakchalari 2 dona, uchta chigitli paxta bo‘lakchalari 1 dona, to‘rtta chigitli paxta bo‘lakchalari 3 dona, beshta chigitli paxta bo‘lakchalari 4 dona, oltita chigitli paxta bo‘lakchalari 4 dona, yettita chigitli paxta bo‘lakchalari 1 dona, sakkizta chigitli paxta bo‘lakchalari 2 dona, to‘qqizta chigitli paxta bo‘lakchalari 1 dona, o‘nta chigitli paxta bo‘lakchalari uchramadi, o‘n bitta va o‘n ikkita chigitli paxta bo‘lakchalaridan 1 donadan iborat bo‘ldi.

8-marotaba arrachali barabanlar seksiyasidan o‘tkazilganda esa eshilgan paxta bo‘lakchalar soni 6 tani, shundan 2,4,5,6ta chigitli paxta bo‘lakchalari 1 donadan, 3ta chigitli paxta bo‘lakchalari 2 donani tashkil etdi.




5-rasm. Arrachali barabanlarda tozalash qaytaligini eshilgan paxta tolalarini to‘g‘rilanishga ta’siri gistogrammasi.

Tozalash qaytaligini eshilgan paxta bo‘lakchalaridagi chigitlar soniga ta’sirini tahlil qilsak, 1-marotaba arrachali barabanlarda o‘tkazilganda chigitlar soni 124 donani, 2-marotabada 116 dona, 3-marotabada 104 dona, 4-marotabada 77 dona, 5-marotabada 68 dona, 6-marotabada 62 dona, 7-marotabada 39 dona va 8-marotabada 23 dona chigitlardan iborat paxta bo‘lakchalarini tashkil etdi (6-rasmga qarang).

Demak, 6A-12M uskunasi tozalangan paxtani yirik iflosliklardan tozalash jarayonida ishlatiladigan arrachali barabanlarda qayta ishlanganda eshilgan paxta bo'lakchalari miqdori kamayishiga erishilmoqda. Eshilgan paxta bo'laklardagi chigitlar soni 124 donadan 23 donagacha kamaymoqda.

Eshilgan paxta bo'lakchalarini arrachali barabanlarda o'tkazilganda 1-marotabada 20,71 %ni eshilgan paxta bo'lakchalari tashkil etgan bo'lsa, 2-marotabada 18,76 %ni, 3-marotabada 17,46 %ni, 4-marotabada 12,97 %ni, 5-marotabada 11,76 %ni, 6-marotabada 10,47 %ni, 7-marotabada 5,99 %ni va 8-marotabada 4,1 %ni tashkil etdi. Sakkiz marta arrachali barabanlardan o'tkazilganda birinchi arrachali barabanga nisbatan eshilgan paxta bo'lakchalarini 5 martagacha kamaytirishga erishilmoqda.



6-rasm. Tozalash qaytaligida eshilgan paxta bo'lakchalaridagi chigitlar sonini o'zgarish grafigi.


6A-12M uskunasi tozalashda hosil bo'ladigan eshilganlikni arrachali barabanlar seksiyasida kamaytirish hisobiga raqobadbardosh sifatli tola olish imkoniyati mavjud ekanligi aniqlanmoqda. Keyingi tajribalarimizda tozalash qaytaligini eshilgan paxtani tarkibidagi iflos aralashmalarni ajralishiga ta'sirini tadqiq etamiz.

Mayda iflosliklardan tozalash uskunasi 6A-12M1 da tozalangan paxtani UXK uskunasi arrachali barabanlar seksiyasida tozalash qaytaligini iflosliklar ajralishiga ta'sirini tadqiq etish maqsadida tajribalar olib borildi.

Tadqiqotlarda Nam-77 seleksiya navidagi 6A-12M1 uskunasi tozalangandan so'ng ifloslik miqdori 4,5 % bo'lgan paxta xomashyosida olib borildi. UXK uskunasi bir marta paxta tozalanib, tozalash jarayonida ajralgan iflosliklar miqdori aniqlandi. UXK uskunasi arrachali barabanlar seksiyasidan 8 martagacha o'tkazish qaytaligini tozalash samaradorligiga ta'siri o'rganildi. Paxtaning ifloslik miqdori O'zDST da keltirilgan metodika asosida aniqlandi. Tadqiqot natijalarini tahlil qiladigan bo'lsak, UXK tozalagichida 1-marotaba qayta ishlangan paxta xomashyosidan o'rtacha 19,76 gr iflos aralashmalar ajraldi, 2-marotabada tozalashda 7,26 gr, 3-marotabada tozalashda 2,60 gr, 4-marotabada tozalashda 1,85 gr, 5-marotabada tozalashda 1,34 gr, 6-marotabada tozalashda 0,76 gr, 7-marotabada tozalashda 0,66 gr va 8-marotabada tozalashda 0,34 gr iflosliklar ajraldi. Jami ajralgan iflosliklar 34,58 gr ni tashkil etdi.

UXK rusumli uskunada paxtani qayta ishlash qaytaligini tozalash samaradorligiga ta'sirini tahlil etsak, UXK tozalagichida 1-marotaba qayta


ishlanganda tozalash samaradorlik 53,77 %ni, 2-marotabada 68,43 %ni, 3-marotabada 83,45 %ni, 4-marotabada 85,88 %ni, 5-marotabada 87,46 %ni, 6-marotabada 90,43 %ni, 7-marotabada 92,56 %ni va 8-marotabada 95,92 %ni tashkil etdi. Uskunada 3 martagacha qayta ishlanganda tozalash samaradorlikning oʻsishi (83,45 % gacha) yuqori boʻlib, 4-martadan soʻng tozalash samaradorlikning oʻsishi sekinlashishi aniqlanmoqda. Tozalash samaradorlikni 3 marta tozalashdan soʻng oʻsish jadalligini pasayishi paxta tarkibida aktiv iflosliklarning koʻpligi va passiv iflosliklarning kam qolganligi bilan izohlanadi.



7-rasm. Eshilgan paxta boʻlakchalarini tozalash qaytaligini UXK uskunasi tozalash samaradorligiga taʼsiri.

Tozalash qaytaliklarida tozalash samaradorliklar har bir qayta oʻtkazilganda 1-marotaba qayta ishlanganda tozalash samaradorlik 53,77 %ni, 2-marotabada 31,57 %ni, 3-marotabada 16,55 %ni, 4-marotabada 14,12 %ni, 5-marotabada 12,54 %ni, 6-marotabada 9,57 %ni, 7-marotabada 7,44 %ni va 8-marotabada 4,08 %ni tashkil etdi.

Qoziqli shnek qoziqlarining shakli va oʻlchamlarini uskunaning tozalash samaradorligiga taʼsirini oʻrganish maqsadida amaliy tajribalar oʻtkazildi. Tajribalarda 8-rasmda keltirilgan sxemadagi shnekdan foydalanib, uning perosiga tajriba namunalari (9-rasmga qarang) qoziqlar oʻrnatilib, tadqiqotlar oʻtkazildi.




8-rasm. Tajribalarda foydalanilgan shnek sxemasi: 1-shponka uyasi; 2-vintli shnek perosi; 3-val.

Qoziqlarning shnek perosiga nisbatan ogʻish burchaklarini 30° , 45° , 60° va 90° (mavjud variant) graduslarda oʻrnatilib, izlanishlar olib borildi. Qoziqli shnekning umumiy diametri 550 mm ni saqlab qolish uchun har xil burchakda joylashgan

qoziqlarni egilish nuqtasi shnek perosidan chiqib turish balandligi 60° da 9,85 mm, 45° da 21,97 mm va 30° da 37,5 mm ni tashkil etdi.

Qoziqli shnek va to'rtli yuza orasida masofani tozalash samaradorligiga ta'siri yuqori ekanligi e'tiborga olinib, umumiy diametr saqlandi. Shnek perosidan va qoziq uchlarining orasidagi masofa qoziqlarning burchak ostida joylashganligi hisobiga 60° da 37,16 mm, 45° da 53,3 mm va 30° da 65,22 mm ni tashkil etadi. Shnek perosiga juft qilib o'rnatilgan qoziqlar orasidagi masofa 60° da 74,32 mm, 45° da 106,6 mm va 30° da 130,44 mm ni tashkil etadi. Shuningdek, shnek qadami bo'yicha qoziqlarning uchlarini oraliq masofasi peroning bir tomoniga o'rnatilganda barcha tajriba namunasidagi qoziqlarda 300 mm ni tashkil etadi.



9-rasm. Qoziqli shnek perosidan tajriba namunasidagi qoziqlarning chiqib turishi.

Tajriba Nam-77 seleksiyasidagi namligi 8,2 % va iflosligi 5,6 % bo'lgan paxtada o'tkazildi. Ish unumdorlikni ta'sirini aniqlash uchun 4, 6 va 8 tonna/soatda izlanishlar olib borildi. Ishlab chiqarish sharoitiga yaqinlashtirish uchun laboratoriya sharoitidagi tozalagichdan ikki marta o'tkazildi. Har bir tajribada 10 kg paxta ishlatildi. Tozalagichdan o'tkazilgandan so'ng paxtaning ifloslik miqdori va paxta bo'lakchalarini eshilganligini aniqlash uchun namunalar olindi. Tajriba natijalari 1-jadvalda keltirilgan.

Tozalash jarayonida ajralgan ifloslik miqdori ish unumdorlik 4 tonna/soatni tashkil etganda shnek perosini bir tomoniga mavjud qoziq o'rnatilganda 3,72 gr ni, qoziqning egilish burchagi 60° da 3,57 gr ni, 45° da 3,37 gr ni, 30° da 3,19 gr ni tashkil etdi.

Qoziqli shnek turlarining tozalash samaradorligiga ta'sirini tahlil qilsak, ish unumdorlik 4 tonna/soatni tashkil etganda shnek perosini bir tomoniga mavjud qoziq o'rnatilganda 56,9 % ni, qoziqning egilish burchagi 60° da 60,1 % ni, 45° da 63,7 % ni, 30° da 66,4 % ni tashkil etdi. Shnek perosini ikki tomoniga qoziqning egilish burchagi 60° da bo'lganda 64,8 % ni, 45° da 68,5 % ni, 30° da 70,1 % ni tashkil etdi.

